

DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI –MA’MURIY HUQUQ OBYEKTI SIFATIDA

Naimova Nargiza Akbarovna

Osiyo xalqaro universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida o'qituvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: Davlat boshqaruv organlari, boshqarish yoki boshqaruvchi, Zamonaviy menejment tamoyillari, Qonun chiqaruvchi hokimiyat, rahbar mehnati, rahbar, kichik biznes, boshqaruv xodimlari.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Inson faoliyati turlicha bo'lib, turli xil yo'nalishga qaratilgan. Rahbarlar shuni yaxshi bilishi zarurki, agar ishlab chiqarishning kelajak muammolariga o'z vaqtida ahamiyat berilmasa, unda hozirgi vaqtda sexlarda, uchastkalarda yaxshi iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish mumkin bo'lmaydi. Shuning uchun ishlab chiqarishda usta, sex boshlig'i va boshqa rahbarlar istiqboldagi muammolarni, ilg'or mehnat usullarini qidirib topishi, ixtirochilik ishlarini ishlab chiqishi va ularni joriy qilishi, ishchilar malakasini, bilim saviyasini ko'tarishni yaxshi bilishi va uni amalga oshirishi kerak. Boshqaruv mehnati ijtimoiy mehnat turi bo'lib, uning asosiy vazifasi ijtimoiy mehnat jarayonida ayrim ishtirokchilarning va mehnat jamoalarining oldiga kuyilgan topshiriqlarni, rejalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun ularning faoliyatini maqsad sari yo'naltirish va bir-biriga muvofiqlashtirishni ta'minlashdir.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Ijtimoiy boshqaruvning asosiy turlaridan biri davlat boshqaruvidir. U davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat boshqaruv organlari faoliyatining mazmuni istiqbolni belgilash, rejalashtirish, moliyaviy ta'minlash, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, hisobga olish va nazorat qilishdan iborat.

Davlat boshqaruvini tashkil etish tartibi va boshqaruvni amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan turli-tuman munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni o'z ichiga olgan huquqning alohida tarmog'i ma'muriy huquq deb ataladi. Davlat boshqaruvi tizimini rivojlantirish, davlat apparatining ishini yaxshilash, boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarning deyarli barchasi ma'muriy huquq normalari yordamida amalga oshiriladi. Ya'ni aynan ma'muriy huquq normalari boshqaruv organlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlarni tashkil etish, o'zgartirish yoki tugatish qoidalarini belgilab beradi.

Ma'muriy huquq davlatni boshqarishni tashkil etish va amalga oshirish jarayonida yuz beradigan munosabatlarni tartibga solib turuvchi huquqiy me'yorlar tizimidir. «Ma'muriy» so'zi «boshqarish yoki boshqaruvchi», ya'ni shu ishni, vazifani bajaruvchi shaxs demakdir.

Mustaqillik yillarida Ma'muriy huquq me'yorlari ancha yangilandi. Chunki, davlatning iqtisodiy funksiyalari, barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimi va ular faoliyatidagi asoslilik, omilkorlik singari jihatlari ham Ma'muriy huquq me'yorlarini takomillashtirish jarayoni tubdan o'zgartirdi. Markazlashmagan tizimga o'tish va umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lmagan qator

vakolatlarning markaziy organlardan quyi bo'g'inglarga o'tkazilishi jarayoni ro'y bermoqda.

Ma'muriy huquqning ijro etuvchi hokimiyat tuzilishini tokiomillashtirishda, davlat xizmatining huquqiy asoslarini vujudga keltirishda, bozor iqtisodi-yotini tartibga solishda, fuqarolar va tadbirkorlik tizimlari qonuniy huquqlari va manfaatlarining qat'iy himoya ostiga olinishini ta'minlashda ahamiyati katta.

ijro etuvchi hokimiyat organlarida 2 yo'nalishda ketmoqda. Bir tomondan, ijro etuvchi hokimiyatning markaziy va mahalliy organlari orasidagi vakolatlarni chegaralash yo'li bilan, ikkinchi tomondan esa — bajaradigan vazifasiga kura bir xil tipdagi davlat boshqaruv organlarining huquqiy maqomini belgilashda bir xillikni ta'minlash hamda davlat va ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi boshqaruv darajasini yuksaltirish yo'li bilan ushbu jarayon amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy munosabatlarni boshqarib borishning bozor mexanizmiga o'tish sharoitida Ma'muriy huquq me'yorlari yangi iqtisodiy boshqaruv omillarining joriy etilishini nazarda tutadi (li-senziyalash, kvota belgilash, soliq solish va undirish). Bozor iqtisodiyotining ma'muriy huquqiy ta'minlanishi iqtisodiy va ijtimoiy sohalar rivojini prognozlash va dasturiy rahbarlik qilish, O'zbekistonning ilmiy texnikaviy salohiyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda davlat mulkini samarali boshqarish va tadbirkorlikni rag'batlantirishga doyr tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan.

Ma'muriy huquq boshqarish organlarining tashkil etilishi, faoliyat tartibi, prinsiplari, shakl va usullarini, davlat xizmati, davlat xizmatchilarining huquq va burchlari, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning davlat boshqaruv sohasidagi huquq va burchlarini belgilaydi. Ma'muriy huquq davlatni boshqarish sohasidagi munosabatlarni, xususan, davlat boshqaruv organlarining o'zaro munosabatlarini, shuningdek, ularning jamoat tashkilotlari va fuqarolar bilan munosabatlarini tartibga solish uchun hokimiyatning maxsus organlari belgilagan xatti-harakat qoidalari boshqarish jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'muriy huquq o'zining tabiatiga ko'ra davlat hokimiyatini amalga oshirishni tartibga solishga, barcha hokimlik organlarining faoliyatlarini qonunning aniq doirasiga kiritishga da'vat etadi. Hokimlik funksiyalarining sarhadlarini, boshqaruvning buyruq bozlik shakllariga qarshi turishga yordam beruvchi yuridik mexanizmlarni belgilash ma'muriy huquqning muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Hokimlik qiluvchi tuzilmalarning ichki tashkiliy faoliyati sohasidagi munosabatlarni va davlatning nazorat faoliyatini ma'muriy huquq amalga oshiradi.

Davlat boshqaruv organlari — qonun bilan belgilangan tartibda tashkil topgan va uning funksiyalari hamda vazifalarini amalga oshirish uchun davlat tomonidan vakolat berilgan, bu maqsadda davlat-hokimiyat vakolati bilan ta'minlangan va belgilangan tartibda ish ko'ruvchi fuqarolar guruhidir.

Qonun chiqaruvchi hokimiyatni O'zbekiston Respublikasi Parlamenti — Oliy Majlis amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi endilikda ikki palatalik organ tariqasida faoliyat ko'rsatmoqda. Parlament a'zolari har bir davlatda o'ziga xos xususiyatlar asosida saylanishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Oliy Majlisining Senatiga senator 25 yoshdan, Qonunchilik Palatasi deputati ham saylov kunigacha 25 yoshga to'lgan, O'zbekiston hududida saylovgacha muqim 5 yil istiqomat qilgan, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi ega bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining ikki palatali parlament tartibi, vakolatlari, maqomlari va boshqa jihatlariga ko'ra quyi palata faqat doimiy asosda ishlovchi deputatlardan tarkib topdi. Vazirlar Mahkamasi barcha funksiyalarni, vazirliklar — ayrim yoki bir qator funksiyalarni bajaradi.

Faoliyatlarining hududiy miqyoslariga ko'ra davlat boshqaruv organlari yuqori, markaziy va mahalliy organlarga bo'linadi.

Yuqori organlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi kiradi.

Markaziy organlarga vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar kiradi.

Mahalliy boshqaruv organlariga hokimlar, shuningdek, ayrim vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning organlari, bir nechta ma'muriy-hududiy birliklar hududidagi obyektlar: sanoat birlashmalari, boshqarmalari, temir yo'llar va shu kabilar kiradi.

Tuzilish tartibiga ko'ra davlat boshqaruv organlari tomonidan bevosita tuziladigan davlat hokimiyati yuqori ijro etuvchi, boshqaruvchi organlari, vazirliklar, idoralar, hokimlar tomonidan tuziladigan davlat boshqaruv organlariga bo'linadi.

Tuzilish usuliga ko'ra davlat boshqaruv organlari tuziladigan (Vazirlar Mahkamasi) va tayinlanadigan davlat boshqaruv organlariga bo'linadi.

Hajmi va huquqiy tusiga ko'ra davlat boshqaruv organlari umumiy, tarmoq, tarmoqlararo huquqiy organlarga bo'linadi. Birinchi guruhga Vazirlar Mahkamasi, hokimliklar kiradi. Ikkinchisiga — vazirliklar, idoralar, hokimliklarning bo'linmalari va boshqarmalari kiradi.

Uchinchisiga — davlat qo'mitalari kiradi.

Idoralarga qarashli masalalarni hal etishga ko'ra boshqaruv organlari kollegiallik va yakkaboshchilik boshqaruv organlariga bo'linadi. Davlat boshqaruv organlari yagona tizimni tashkil etadilar. U respublika miqyosida xo'jalikka, ijtimoiy, madaniy va ma'muriy-siyosiy qurilishga kundalik har tomonlama rahbarlik qilishni ta'minlash zarurligidan kelib chiqadi. Davlat boshqaruv organlari tizimi respublikaning milliy-davlat tuzilishi va ma'muriy-hududiy bo'linishning o'ziga xosliklarini hisobga olib quriladi. Unga O'zbekiston Respublikasining, Qoraqalpog'iston Respublikasining xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlari va ovullar, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalar fuqarolarining yig'inlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, shahar, qishloq kiradi.

Davlat organlari va davlat xizmatchilaridan tashqari jamoat birlashmalari ham ma'muriy-huquqiy munosabatlarning subyektlari bo'lishlari mumkin. Jamoat birlashmalari — xalqning o'zini o'zi boshqarish tizimi bo'g'inidir. Ular davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini tuzishda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari qarorlarini ishlab chiqishda qatnashadilar, davlat va jamoatchilik organlarida o'z a'zolarining qonuniy manfaatlarini ifodalaydilar.

Davlat xizmatchilari hodimlardan (ishchilar, dehqonlar...) moddiy ishlab chiqarish xususiyatlari bilan ajratib turadi. Hodimlar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lsalar, davlat xizmatchilari o'z faoliyati davomida hech qanday moddiy boylik ishlab chiqarmaydilar.

Davlat xizmatchisi o'z vazifalarini hajmiga ko'ra 4 guruhga bo'linadi:

1. Yordamchi hodimlar (kotiblar, o'qituvchilar...);
2. Mutaxassislar (shifokorlar, o'qituvchilar...);
3. Mansabdor shaxslar (rektor, direktor...);
4. Hokimiyat vakili (militsiya, soliq inspektori...).

Davlat boshqaruv organlari tomonidan o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish jarayonida qo'llanilayotgan boshqaruv harakatlari ko'rinishi jihatidan davlat boshqaruvi shakllari deb ataladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Alisher, S. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje*. 46, 366-372.
2. Shadiyev, A. K. (2023). Stages of Development of the Digital Economy in Uzbekistan and Future Plans. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(12), 333-340.
3. Шадиев, А. Х. & Давронов, И. О. (2020). Роль развития персонала в повышении эффективности услуг и его влиянии на экономику. *Вопросы науки и образования*, (6 (90)), 15-17.

4. Шадиев, А. Х. (2020). Способы улучшения структуры управления в туризме. Вопросы науки и образования, (7 (91)), 29-31.
5. Bazarova, M. S., & Khudaiberdiyeva, O. Q. (2022). IMPROVEMENT OF THE MECHANISM OF INNOVATIVE MANAGEMENT OF FOOD INDUSTRY ENTERPRISES. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 464-467).
6. Supievnа, V. M. (2023). EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION.
7. Supievnа, V. M. (2023). MARKETING MANAGEMENT STRATEGY'S IMPORTANCE AND MODERN CONCEPT. *Gospodarka i Innowacje*. 42, 381-386.
8. Supiyevna, V. M. (2023). TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA PERSONALNI BOSHQARISHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Gospodarka i Innowacje*. 42, 409-414.
9. Supiyevna, V. M. (2024). TIZIMIDA BANK FINANCIAL SERVICE NUMBER: DEVELOPMENT AND OLD TURGAN. *Gospodarka i Innowacje*. 46, 379-385.
10. Базарова, М. С. Шарипова, М. & Нуруллоев, О. (2021). “РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ” ДА АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИ ХУСУСИЯТЛАРИ. САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 482.
11. Bahodirovich, K. V. (2024). RISK-BASED FINANCIAL INSTRUMENTS: THEORIES AND CONCEPTS. *Gospodarka i Innowacje*. 46, 373-378.
12. Xalilov, B. (2024). ISSUES OF IMPROVING THE FINANCIAL MECHANISM OF SMALL BUSINESS ENTITIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 747-753.
13. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL INDICATORS OF BUSINESS EFFICIENCY IN COMPANIES. *Modern Science and Research*, 2(10), 835-839.
14. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL ELEMENTS OF BUSINESS STABILITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 877-882.
15. Xalilov, B. (2024). COBB-DOUGLAS PRODUCTION FUNCTION AND ITS IMPORTANCE IN BUSINESS MATHEMATICS AND ECONOMIC ANALYSIS. *Modern Science and Research*, 3(1), 754-758.
16. Khalilov, B. (2024). FOREIGN EXPERIENCE IN PERSONNEL MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 974-978.
17. Nafisa, R. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS OF MODERN MANAGEMENT TRAINING. *Gospodarka i Innowacje*. 46, 265-269.
18. Raxmonqulova, N. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 3(2), 340-347.
19. Қизи Рахмонкулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ҲУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. “Экономика и туризм” международный научно-инновационной журнал, 6(14).
20. Nafisa, R. (2023). XUSUSIY SHERIKCHILIK VA TURIZM KLASTERI ORQALI HUDUDLARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(8), 556-560.
21. Raxmonqulova, N. (2024). THE ROLE OF CYBER SECURITY IN THE DIGITAL ECONOMY. *Modern Science and Research*, 3(1), 111-115.

22. Авезова, Ш. М. & Жумаева, З. К. (2013). МЕХАНИЗМЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА. СЕКЦИЯ 1. Економіка і управління національним господарством..... 9, 12.
23. Примова, А. А. Усманова, Н. Ю. & Жумаева, З. К. (2013). НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ АГРАРНОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА. In ЕКОНОМІКА І УПРАВЛІННЯ: ПРОБЛЕМИ НАУКИ ТА ПРАКТИКИ (pp. 199-202).
24. Жумаева, З. К. & Тошев, Ф. З. (2017). РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ В РАЗВИТИИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ. Ученый XXI века, 77.
25. Рузметов, Б. Р. & Жумаева, З. К. (2020). АНАЛИЗ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. In Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации (pp. 246-250).
26. Жумаева, З. К. & Гафуров, Э. О. (2022). ФИСКАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ГОСУДАРСТВА. Редакционная коллегия, 358.
27. Jumayeva, Z. (2024). THEORY OF SUPPLY AND DEMAND AND ITS MARKET RELATIONSHIP EFFECT. *Modern Science and Research*, 3(2), 426-432.
28. Jumayeva, Z. (2024). WAYS AND METHODS OF DEVELOPING SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN OUR COUNTRY. *Modern Science and Research*, 3(2), 433-440.
29. Zamira, J. (2024). IQTISODIYOTDA SUNIY INTELEKTDAN FOYDALANISH ZARURIYATI VA ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innowacje*. 46, 320-325.
30. Bustonovna, D. Z. (2024). CREATIVE THINKING AND ITS APPLICATION IN ECONOMICS.[Data set]. Zenodo.
31. Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 712-717.
32. Alimova, S. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 385-390.
33. Abidovna, A. S. (2024). "PERSONNEL MANAGEMENT" AND "HUMAN RESOURCE MANAGEMENT": HISTORY OF ORIGIN, ESSENCE AND RELATIONSHIP OF CONCEPTS. *Gospodarka i Innowacje*. 46, 336-343.
34. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES.
35. Hakimovich, T. M. (2024). XODIMLARNI BOSHQARISHDA KPI SAMARADORLIGI TAHLILI. *Gospodarka i Innowacje*. 46, 270-273.
36. Hakimovich, T. M. (2023). BOSHQARUVCHILARNING SAMARADORLIKKA ERISHISHDAGI PROFESSIONALLIGI. *Gospodarka i Innowacje*. 42, 421-425.
37. To'rayevna, S. N. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINI RIVOJLANISHDA INVESTITSIYALARNING O 'RNI. *Gospodarka i Innowacje*. 46, 258-264.
38. Sodiqova, N. (2024). ECONOMIC POLICY IN THE FIELD OF YOUTH EMPLOYMENT: FOREIGN EXPERIENCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 330-339.
39. To'rayevna, S. N. (2024). TADBIRKORLIK SOHASINI MALAKALI KADRLAR BILAN TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.

40. Sodikova, N. (2024). OTMda "Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari" fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning o'rni. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-4.
41. Ibdulloyevich, I. E. (2023). TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH SODDALASHTIRILADI.
42. Ibdulloyevich, I. E. (2024). DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARIDA RAHBAR XODIMLAR MEHNATINI TASHKIL ETISH VA SALOHIYATINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.
43. Ibdulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TIZIMIDA RAHBARLIK USLUBLARINING TASNIFLANISHI.
44. Ibdulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TAMOYILLARI VA USLUBLARIDAN FOYDALANISHDA RAHBAR MEHNATINING AHAMIYATI.
45. Ibdulloyevich, I. E. (2024). ISHLAB CHIQRISHDA RAHBAR MEHNATINING ASOSIY O'RNI VA KORXONALAR IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 311-315.
46. Ibdulloyevich, I. E. (2024). RESPUBLIKADA XIZMATLAR SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ORQALI XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 247-251.
47. Ikromov, E. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF INCREASING THE QUALITY AND COMPETITIVENESS OF SERVICES. *Modern Science and Research*, 3(2), 803-810.
48. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF MODERN MANAGEMENT AND ITS METHODS. *Modern Science and Research*, 3(2), 811-819.
49. Ikromov, E. (2024). USE OF FOREIGN EXPERIENCES IN THE ORGANIZATION OF MANAGERIAL WORK IN PRODUCTION ENTERPRISES AND ITS IMPROVEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 820-828.
50. Ikromov, E. (2024). FOREIGN EXPERIENCES OF SERVICE SECTOR DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 794-802.
51. Akbarovna, N. N. (2023). MULKCHILIK MUNOSABATLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI.
52. Naimova, N. (2024). DIGITALIZATION IN OUR COUNTRY'S EDUCATION SYSTEM AND APPLICATION IN THE DIGITAL WORLD. *Modern Science and Research*, 3(1), 912-917.
53. Naimova, N. (2024). THE COUNTRY'S ECONOMIC POTENTIAL IN DIGITAL ECONOMY AND E-COMMERCE DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 234-239.
54. Akbarovna, N. N. (2024). XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 326-335.
55. Naimova, N. (2024). STRATEGY OF DIGITALIZATION OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES OF THE STATE TAX COMMITTEE. *Modern Science and Research*, 3(2), 635-641.
56. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBATDOSHLIKNI OSHIRISHDA INNOVATSION SALOHIYATNING AHAMIYATI.
57. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE ACTIVITY IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Modern Science and Research*, 3(2), 1257-1261.

58. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2023). Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish. *Science and Education*, 4(7), 476-481.
59. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE POTENTIAL IN INCREASING COMPETITIVENESS. *Modern Science and Research*, 3(1), 933-938.